RAQAMLI IQTISODIYOT BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING IQTISODIY OMILLARI VA ZAMONAVIY AHAMIYATI.....	693
Yusubov Inomjon Ikrom o'g'li	
MOLIYAVIY RESURLARNI BOSHQARISHNING NAZARIY-METODOLOGIK VA AMALIY JIHATLARI.....	699
Narzulloyev Behruz Baxtiyor o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA RAQAMLI BANK XIZMATLARI AMALIYOTI TAHLILI.....	702
Kazakbayev S.B.	
BOG'DORCHILIK TARMOG'NI RIVOJLANTIRISHDA SUV TEJAMKOR TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	705
Sattorov Orifjon Boymurodovich	
MHXS ASOSIDA SUG'URTA KOMPANIYALARINING BUGALTERIYA HISOB VA MOLIYAVIY TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYALARI.....	709
Alimov Baxodir Batirovich	
QISHLOQ XO'JALIGINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA DAVLATNING IMTIYOZLI MOLIYALASHTIRISH MYEXANIZMLARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	718
Xolmatov Sanjarbek Xojimamatovich	
MAHALLA TIZIMIDA INSON KAPITALIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA INKLYUZIV IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI.....	724
Berkinov Bozorboy Berkinovich	
XALQARO TURIZM BOZORIDA MICE TURIZMINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH JARAYONLARINING NAZARIY ASOSLARI.....	728
Fayyoza Xalimova Nafasovna	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA MIJOZLARGA YO'NALTIRILGAN BIZNES JARAYONLARINI TRANSFORMATSIYA QILISH AMALIYOTI.....	733
A.M. Azimov	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BANDLIKNI LEGALLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI.....	737
Xalimbetov Farxad Bagibekovich	



TIJORAT BANKLARINING BIZNES EKOTIZIMI MUAMMO VA YECHIMLAR.....	742
Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI YALPI HUDUDII MAHSULOT XAJMIGA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTISIYALARNING TA'SIRI	749
Sultanov Anvar Abdullaevich	



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI YALPI HUDUDIIY MAHSULOT XAJMIGA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTISIYALARNING TA'SIRI

Sultanov Anvar Abdullaevich

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Investitsiyalar, sanoat va savdo
vazirligi bosh mutaxassisi,
Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy Universiteti
mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0009-0008-3146-3709
anvar.sultanov@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasida yalpi hududiy mahsulot (YHM) hajmining shakllanishida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning iqtisodiy ahamiyati va ularning ta'sir mexanizmlari tahlil qilingani. Tadqiqotda hudud iqtisodiyotining tarkibiy xususiyatlari, investitsiya faolligining real sektor rivojiga ta'siri hamda ishlab chiqarish salohiyatining kengayishidagi o'rni ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar sanoat, infratuzilma, energetika va xizmatlar sohalarida qo'shimcha qiymat yaratish orqali YHM o'sishini rag'batlantiruvchi muhim omil sifatida ko'rib chiqilgani.

Kalit so'zlar: Yalpi hududiy mahsulot, ish kuchi, investisiya, investisiya siyosati, sanoat, sohalar, o'sish, inflyasiya, iqtisodiy barqarorlik yalpi hududiy mahsulot, asosiy kapitalga investitsiyalar, hududiy iqtisodiy o'sish, investitsiya faolligi, iqtisodiy rivojlanish omillari, hududiy iqtisodiyot, kapital qo'yilmalar, iqtisodiy samaradorlik, Qoraqalpog'iston Respublikasi, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar.

Abstract. This research article analyzes the economic significance of fixed capital investment in the formation of the gross regional product (GRP) in the Republic of Karakalpakstan and the mechanisms by which it influences it. The study provides a scientific basis for the structural features of the regional economy, the impact of investment activity on the development of the real sector, and its role in expanding production potential. Fixed capital investment is viewed as an important factor stimulating GRP growth through the creation of added value in the industrial, infrastructure, energy, and service sectors.

Key words: Gross regional product, labor force, investment, investment policy, industry, sectors, growth, inflation, economic stability, gross regional product, fixed capital investment, regional economic growth, investment activity, factors of economic development, regional economy, capital investment, economic efficiency, the Republic of Karakalpakstan, macroeconomic indicators.

Аннотация. В данной научной статье анализируется экономическое значение инвестиций в основной капитал в формировании объема валового регионального продукта (ВРП) в Республике Каракалпакстан и механизмы их влияния. Исследование научно обосновывает структурные особенности региональной экономики, влияние инвестиционной деятельности на развитие реального сектора и ее роль в расширении производственного потенциала. Инвестиции в основной капитал рассматриваются как важный фактор, стимулирующий рост ВРП за счет создания добавленной стоимости в секторах промышленности, инфраструктуры, энергетики и услуг.

Ключевые слова: Валовой региональный продукт, рабочая сила, инвестиции, инвестиционная политика, промышленность, секторы, рост, инфляция, экономическая стабильность, валовой региональный продукт, инвестиции в основной капитал, региональный экономический рост, инвестиционная активность, факторы экономического развития, региональная экономика, капиталовложения, экономическая эффективность, Республика Каракалпакстан, макроэкономические показатели.



KIRISH

Hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda yalpi hududiy mahsulot (YHM) hajmining barqaror o'sishi muhim strategik maqsadlardan biri hisoblanadi. (YHM) hudud iqtisodiyotida yaratilgan qo'shimcha qiymatning umumiy hajmini ifodalab, ishlab chiqarish salohiyati, investitsiya faolligi va aholi farovonligining asosiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu ko'rsatkichning o'sishida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hal qiluvchi omil sifatida maydonga chiqadi.

Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish, mavjud asosiy fondlarni modernizatsiya qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish imkonini beradi. Bu jarayon mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish va raqobatbardosh mahsulotlar ulushini ko'paytirish orqali hudud iqtisodiyotida qo'shimcha qiymat yaratilishini tezlashtiradi. Natijada yalpi hududiy mahsulot hajmining o'sishi uchun mustahkam iqtisodiy asos shakllanadi.

Hududlar kesimida investitsiya oqimlarining samarali taqsimlanishi iqtisodiy nomutanosibliklarni kamaytirib, tarmoqlar diversifikatsiyasini kengaytiradi va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning yalpi hududiy mahsulot hajmiga ta'sirini ilmiy jihatdan tadqiq etish, ularning o'zaro bog'liqligini aniqlash hamda hududiy investitsiya siyosatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

A.R.Yaxshimuratovning "Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyotiga investitsiya qilish zarurligi" nomli ilmiy maqolasida ekologik jihatdan muammoli hudud hisoblangan Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalarni, xususan, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish zarurati ilmiy jihatdan asoslangan. Mazkur maqsadga erishish uchun maqolada ekologik muammoli hududlar tasnifi amalga oshirilgan, Qoraqalpog'iston Respublikasining investitsion faoliyati tahlil qilingan hamda investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Xulosada hududning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, aholi turmush farovonligini oshirish va ekologik vaziyatni yumshatishda investitsiyalarning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini asoslab berilgan¹.

K.A.Saparovning "Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyotiga investitsiyalarning tarkibi va dinamikasini ekonometrik tahlili" nomli ilmiy maqolasida hudud iqtisodiyotiga kiritilayotgan investitsiyalarning tarkibi, manbalari va vaqt bo'yicha o'zgarish dinamikasi chuqur ilmiy-amaliy hamda ekonometrik usullar asosida tahlil qilingan. 2010 – 2022-yillar statistik ma'lumotlari asosida asosiy kapitalga investitsiyalar, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, aholi bandligi va korxonalar sonining yalpi hududiy mahsulotga ta'siri ko'p omilli regressiya modellari orqali baholangan. Tadqiqot natijalari xususiy va xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish iqtisodiy faollikni oshirishini ilmiy asoslab bergan².

B.B.Valiyevning "O'zbekiston mintaqalarida kapital oqimlari rivojlanishining zamonaviy xususiyatlari" nomli ilmiy maqolasida hududlarda kapital oqimlari rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari tahlil qilingan hamda investitsiyalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, tarkibi va samaradorligi baholangan. Tadqiqotda asosiy kapitalga investitsiyalar, xorijiy investitsiyalar va yalpi hududiy mahsulot o'sishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik kompleks tahlil asosida yoritilgan.

Tahlil natijalariga ko'ra, investitsiya oqimlari asosan tabiiy resurslar va ishlab chiqarish salohiyati yuqori bo'lgan hududlarda jamlangani, bu esa mintaqalar o'rtasida iqtisodiy nomutanosiblikni kuchaytirayotgani aniqlangan. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Qashqadaryo va Navoiy viloyatlarida yirik sanoat va yoqilg'i-energetika loyihalari investitsiya o'sishining asosiy drayveri bo'lgan.

Maqoladagi ilmiy asoslangan xulosalarga ko'ra, mintaqalarni mutanosib rivojlantirish uchun har bir hududning nisbiy ustunliklarini hisobga olgan holda investitsiya siyosatini takomillashtirish, agrosanoat tarmoqlarini rivojlantirish, xorijiy kapitalni jalb qilish mexanizmlarini kuchaytirish va maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini kengaytirish zarurligi asoslab berilgan³.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilib, investitsiya jarayonlarining hududiy iqtisodiy o'sishga ta'siri nazariy jihatdan asoslandi.

1 Yaxshimuratova A. ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИҚТISODIYOTIGA ИНВЕСТИЦИЯЛАР КИРИТИШ ЗАРУРАТИ // Economics and Innovative Technologies. – 2022. – Т. 10. – №. 3. – С. 55-64.

2 Saparov K. ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИҚТISODIYOTIDA ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИНГ ТАРКИБИ ВА ДИНАМИКАСИНННГ ЭКОНОМЕТРИК ТАХЛИЛИ //Economics and Innovative Technologies. – 2023. – Т. 11. – №. 3. – С. 223-234.


3 Валиев Б. Современные характеристики развития потоков капитала в регионах Узбекистана //Экономика и инновационные технологии. – 2016. – №. 2. – С. 21-27.



Statistik va taqqoslama tahlil usullari orqali yalpi hududiy mahsulot hajmi hamda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar o'rtasidagi dinamik bog'liqlik yillar kesimida o'rganildi. Bundan tashqari, grafik va diagrammatik usullar orqali olingan natijalar vizual tarzda ifodalandi. Ushbu usullarning uyg'un qo'llanilishi tadqiqot xulosalarining ilmiy asoslanganligi va amaliy ahamiyatini oshirishga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yalpi hududiy mahsulot (YHM) hajmi va asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar o'rtasida uzviy va o'zaro bog'liq munosabat mavjud. Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish va kengaytirish, infratuzilmani rivojlantirish hamda texnologiyalarni yangilash orqali iqtisodiy o'sishning asosiy manbai hisoblanadi. Mazkur jarayon natijasida hududda qo'shimcha qiymat yaratiladi va bu bevosita YHM hajmining o'sishida aks etadi. Shu bilan birga, YHM hajmining ortishi hududning investitsiyaviy jozibadorligini oshirib, yangi investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay iqtisodiy muhit yaratadi. Demak, investitsiyalar va YHM o'rtasida ikki tomonlama, ya'ni aylanma bog'liqlik shakllanadi. Shbu bog'liqlikni kengaytirish va mustahkamlashda institusional mexanizmlar muhim o'rin tutadi. Avvalo, investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy bazani takomillashtirish, mulk huquqi kafolatlarini kuchaytirish va shartnomalar ijrosini ta'minlash orqali investorlar ishonchini oshirish zarur. Ikkinchidan, hududiy darajada investitsiyalarni qo'llab-quvvatlovchi institutlar ya'ni rivojlanish agentliklari, maxsus iqtisodiy zonalar, sanoat parklari va investitsiya jamg'armalarini faollashtirish muhim ahamiyat kasb etadi (1-rasm).



1-rasm. 2017-2024-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi yalpi hududiy mahsuloti hajmi va asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi⁴.

2017 – 2024-yillar davomida Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiy rivojlanishida barqaror ijobiy tendensiyalar kuzatildi. Diagrammada keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, yalpi hududiy mahsulot hajmi 2017-yildagi 13,3 trln so'mdan 2024-yilga kelib 45,7 trln so'mgacha oshgan bo'lib, bu qariyb 3,4 barobar o'sishni anglatadi. Mazkur jarayon hudud iqtisodiyotida ishlab chiqarish hajmlarining kengayishi, sanoat va xizmatlar ulushining ortishi hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan investitsiya siyosati bilan bevosita bog'liqdir.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi ham mazkur davrda sezilarli darajada oshgan. 2017-yilda 2,8 trln so'mni tashkil etgan investitsiyalar 2024-yilga kelib 20,5 trln so'mgacha yetgan. Biroq investitsiyalar dinamikasi YaHM o'sishiga nisbatan notekis bo'lgan. Xususan, 2019–2020-yillarda investitsiyalar hajmining qisqarishi kuzatilgan bo'lsa-da, YaHM o'sishi davom etgan. Bu holat avvalgi yillarda kiritilgan investitsiyalarning kechiktirilgan (lag) samara berishi, mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish va ichki talabning nisbatan barqarorligi bilan izohlanadi.

4 <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments>



2021–2024 yillarda esa investitsiyalar va YaHM o'sishi o'rtasidagi musbat bog'liqlik yanada kuchaydi. Ayniqsa, energetika (shamol va quyosh elektr stansiyalari), gaz-kimyo, qurilish materiallari sanoati va infratuzilma loyihalariga yo'naltirilgan yirik investitsiyalar ishlab chiqarish hajmini oshirib, YaHMning tez sur'atlarda o'sishiga xizmat qildi. 2024-yilda investitsiyalar hajmining keskin ko'payishi YaHM o'sish sur'atlarini yanada tezlashtirganini ko'rsatadi.

Mazkur davrda investitsiyalarning YaHMga ta'siri nafaqat to'g'ridan-to'g'ri, balki bilvosita mexanizmlar orqali ham namoyon bo'ldi. Jumladan, yangi investitsiya loyihalari hisobiga bandlik darajasi oshdi, aholi daromadlari ko'paydi, bu esa ichki iste'mol va xizmatlar sektorining rivojlanishiga turtki berdi. Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi loyihalar orqali zamonaviy texnologiyalar va boshqaruv tajribasi hudud iqtisodiyotiga kirib keldi.

Umuman olganda, 2017–2024-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasida YaHM va asosiy kapitalga investitsiyalar o'rtasida barqaror musbat bog'liqlik mavjudligi kuzatiladi. Biroq bu bog'liqlikning kuchi investitsiyalarning tarmoq tarkibi, ularning samaradorligi va hudud iqtisodiyotiga integratsiyalashuv darajasiga bevosita bog'liq. Shu sababli, kelgusida investitsiyalarni nafaqat hajman oshirish, balki ularning samaradorligini kuchaytirish, qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan sohalarga yo'naltirish Qoraqalpog'iston Respublikasi yalpi hududiy mahsulotining barqaror va uzoq muddatli o'sishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida tadbirkorlik va investisiya faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan soliq, bojxona, yer va moliyaviy imtiyozlar hududiy iqtisodiy o'sishning muhim institusional drayveri hisoblanadi. Mazkur imtiyozlar yalpi hududiy mahsulot (YHM) hajmining o'sishi va asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar dinamikasiga to'g'ridan-to'g'ri hamda bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Amaldagi hujjatlarda belgilangan imtiyozlar tadbirkorlik muhitini yaxshilash, investisiya risklarini kamaytirish va xususiy kapital faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Avvalo, soliq imtiyozlarining YHM o'sishiga ta'siriga to'xtalsak, foyda solig'i, yer solig'i, mol-mulk solig'i va ayrim hollarda aylanmadan olinadigan soliq stavkalarining keskin kamaytirilishi korxonalar ixtiyorida qoladigan sof daromad hajmini oshirgan. Bu esa ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va ish o'rinlari yaratish imkoniyatini kuchaytiradi. Ayniqsa, 2027–2031-yillargacha amal qilayotgan imtiyozlar investisiya loyihalarining o'zini qoplash muddatini qisqartiradi, natijada real sektorda qo'shimcha qiymat yaratish sur'atlari jadallashadi. Bu jarayon YAHM tarkibida sanoat, xizmatlar va turizm sohalari ulushining oshishiga olib keladi⁵.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmiga ta'sir etuvchi muhim omil sifatida yer uchastkalari va davlat mulki ob'ektlarini imtiyozli shartlarda ajratish mexanizmlarini qayd etish zarur. Yer va infratuzilma bilan ta'minlash bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri qarorlar (masalan, Nuqus shahri va boshqa tumanlarda investisiya qiymatiga bog'liq yer ajratish me'yorlari) investorlarning boshlang'ich xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi. Bu esa kapital qo'yilmalarning ko'payishiga va investisiya loyihalarining hududiy konsentratsiyasiga olib keladi.

Subsiya va kompensatsiya mexanizmlari (xususan, mehmonxona xo'jaligi, muzlatkich omborlar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari bilan bog'liq xarajatlarni qoplash) investisiya faoliyatining tarmoqlar kesimida diversifikatsiyalashuvini ta'minlaydi. Bunday qo'llab-quvvatlash turlari xususiy investorlar uchun bozordagi noaniqlikni pasaytiradi, kapitalni uzoq muddatli loyihalarga yo'naltirishni rag'batlantiradi. Natijada asosiy kapitalga investitsiyalar nafaqat hajman o'sadi, balki sifat jihatidan ham takomillashadi.

Mazkur imtiyozlar multiplikativ iqtisodiy ta'sirni shakllantiradi. Investitsiyalarning o'sishi qurilish, transport, logistika, moliya va xizmat ko'rsatish sohalarida qo'shimcha talab yaratadi. Bu esa aholi bandligini oshiradi, daromadlar o'sishini ta'minlaydi va ichki iste'mol kengayishi orqali YAHM o'sishini yanada tezlashtiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida joriy etilgan imtiyozlar tizimi investisiya muhitini institusional jihatdan mustahkamlab, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmini barqaror oshirishga xizmat qilmoqda. Mazkur jarayon esa real sektorda qo'shimcha qiymat yaratishni rag'batlantirib, YAHMning o'rta va uzoq muddatli o'sishini ta'minlash uchun mustahkam iqtisodiy zamin yaratmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari yalpi hududiy mahsulot (YHM) hajmi va asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar o'rtasida barqaror, uzviy va o'zaro kuchli bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi. Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, infratuzilmani rivojlantirish va texnologik yangilanishni jadallashtirish orqali hudud iqtisodiyotida qo'shimcha qiymat yaratilishiga xizmat qiladi. Bu jarayon o'z navbatida YaHM hajmining o'sishida muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida olib borilgan tahlillar 2017–2024-yillarda investitsiya hajmining ortishi YHM o'sish sur'atlarining tezlashuvi bilan uyg'un tarzda kechganini ko'rsatadi. Ayniqsa, energetika,

5 <https://lex.uz/docs/6181114>



sanoat va infratuzilma loyihalariga yo'naltirilgan yirik investitsiyalar hudud iqtisodiyotining tarkibiy jihatdan yangilanishiga va iqtisodiy faollikning oshishiga turtki bergan. Shu bilan birga, ayrim yillarda investisiya hajmining pasayishiga qaramasdan, YaHM o'sishining saqlanib qolishi investitsiyalarning kechiktirilgan samarasi va mavjud resurslardan samarali foydalanish bilan izohlanadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari hududiy iqtisodiy o'sishni ta'minlashda investitsiya siyosatini yanada takomillashtirish, asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar samaradorligini oshirish va ularni yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi tarmoqlarga yo'naltirish zarurligini ko'rsatdi.

Asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalarni yalpi hududiy mahsulotga eng yuqori ta'sir ko'rsatuvchi tarmoqlarga yo'naltirish zarur. Xususan, qayta ishlash sanoati, energetika, logistika va xizmatlar sohasida yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan loyihalarni ustuvor qo'llab-quvvatlash investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini oshiradi. Buning uchun hududiy investitsiya dasturlarida tarmoqlar kesimida aniq ustuvorliklar belgilanishi maqsadga muvofiq.

Hudud iqtisodiyotida davlat investitsiyalariga qaramlikni kamaytirish va xususiy hamda xorijiy kapital ishtirokini kengaytirish zarur. Buning uchun soliq va bojxona imtiyozlarini takomillashtirish, investorlarga yer va infratuzilma bilan ta'minlash mexanizmlarini soddalashtirish hamda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini faol joriy etish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Madaminov I. ИНВЕСТИЦИЯЛАР ВА УЛАРНИНГ ХУДУД ИҚТИСОДИЁТИ РИВОЖЛАНИШИГА ТАЪСИРИ // Economics and Innovative Technologies. – 2023. – Т. 11. – №. 4. – С. 100-109.
2. Yaxshimuratova A. ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИҚТИСОДИЁТИГА ИНВЕСТИЦИЯЛАР КИРИТИШ ЗАРУРАТИ // Economics and Innovative Technologies. – 2022. – Т. 10. – №. 3. – С. 55-64.
3. Saparov K. ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИҚТИСОДИЁТИДА ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИНГ ТАРКИБИ ВА ДИНАМИКАСИНИНГ ЭКОНОМЕТРИК ТАҲЛИЛИ // Economics and Innovative Technologies. – 2023. – Т. 11
4. Валиев Б. Современные характеристики развития потоков капитала в регионах Узбекистана // Экономика и инновационные технологии. – 2016. – №. 2. – С. 21-27.
5. Убайдуллаев К., Алымов А. К. Перспективы развития промышленности в Республике Каракалпакстан // Бюллетень науки и практики. – 2020. – Т. 6. – №. 10. – С. 258-265.
6. Урунов А. А., Сатимова Д. Н. Инвестиционная привлекательность и инвестиционная активность региона: направления активизации центров экономического развития // Вестник Алтайской академии экономики и права. – 2024. – №. 9-1. – С. 137.
7. Бегалов Б. А. и др. Статистический анализ инвестиций в основной капитал в Республике Узбекистан в условиях цифровой трансформации // Цифровые модели и решения. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 37-50.
8. <https://lex.uz/docs/6181114>
9. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments>
10. <https://uzbekistan.org.ua/ru/news/48-economica-news2/investitsionnyj-klimat/5255-investitsionnyj-potentsial-respubliki-karakalpakstan.html>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>